



ILMIY ELEKTRON JURNAL

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI TA'LIM SOHASIDA INKLÝUZİV TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING IJOBIY JİHATLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Qo'chqorov Tohir Safarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi professori

Xolmonov Shodiyor Qarshiboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lism sohasida inklýuziv ta'limi raqamlashtirishning ijobiy jihatlari va mavjud muammolarini tahlil qilingan. Unda inklýuziv ta'limi rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli, imkoniyatlari va afzalliklari, shuningdek, raqamlashtirish jarayonida duch kelinayotgan to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В статье анализируются положительные стороны и существующие проблемы цифровизации инклюзивного образования в сфере образования Республики Узбекистан. В статье рассматриваются роль, возможности и преимущества цифровых технологий в развитии инклюзивного образования, а также препятствия, возникающие в процессе цифровизации, и пути их преодоления.

Annotation

This article analyzes the positive aspects and existing problems of the digitalization of inclusive education in the education sector of the Republic of Uzbekistan. It considers the role, opportunities and advantages of digital technologies in the development of inclusive education, as well as the obstacles encountered in the digitalization process and ways to overcome them.

Kalit so'zlar

raqamli texnologiyalar, inklýuziv ta'lím, interaktiv dasturlar, ta'lím tizimi, ta'limni rivojlantirish.

Ключевые слова

цифровые технологии, инклюзивное образование, интерактивные программы, система образования, развитие образования.

Keywords

digital technologies, inclusive education, interactive programs, education system, educational development.

Kirish

Hozirgi kunda Respublikamiz ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va inklyuziv ta’limning ahamiyati juda muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim, barcha talabalarning ehtiyojlariga javob beradigan, qolaversa barcha toifa va imkoniyatdagi o‘quvchilarni bir xil ta’lim muhitiga jalb qilishga qaratilgan yondashuvdir. Raqamlashtirish esa, ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar, kreativ yechimlar va ko‘proq moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’limni raqamlashtirishning asosiy jihatlari, afzalliklari va mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi.

Davlatimiz hukumati inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2016-yildan boshlab Qonunchilik palatasi, nogironligi bo‘lgan odamlar uchun ta’lim yo‘laklarini yaratish va inklyuziv muhitni shakllantirishga doir qonunlarni qabul qildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyuldagagi PQ-4792-sonli qarorida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Qarorda yirik ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarga muvofiq inklyuziv ta’lim muhitini yaratish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligining 2021-yildagi 2021-2025 yilgacha inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir Dasturi. Ushbu dastur, inklyuziv ta’lim uchun zarur infratuzilmani yaratish, ta’lim beruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha maqsadlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi PQ-5029-sonli farmoni. Ushbu farmonda ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari ko‘rilgan.

Bu tashabbuslar, shubhasiz, ta’lim tizimida barqaror o‘zgarishlarni bo‘lishiga olib kelmoqdadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Dunyo miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, raqamlashtirish oxirgi o‘n yillar ichida shiddat bilan rivojlanib bormoqda va u haqida turli olimlar o‘z fikrlarini aniq qilib bayon qilishganlar. Ayrim xorijiy olimlarning fikricha, raqamlashtirish - bu raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali, resurslarni boshqarishni raqamlashtirish, yangi innovatsiyalarni joriy etish demakdir (1). Inklyuziv ta’limning mohiyati: Inkluziv ta’lim nima ekanligini, uning qoidalari va tamoyillarini aniqlash (2). Raqamli texnologiyalar va inkluziv ta’lim: Raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta’limda qo‘llanilishi, o‘quv jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi va ta’lim sifatini qanday oshirishi haqida (3). Ijobiy jihatlar: Raqamlashtirish natijasida inklyuziv ta’limda

erishilgan muvaffaqiyatlar, o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar va ta'limga individualizatsiyalash imkoniyatlari (4). Mavjud muammolar: Raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, texnologik va psixologik to'siqlar, o'qituvchilar va talabalarning raqamli savodxonligi kabi muammolar (5). Ko'rib chiqilgan adabiyotlar: Mavzuga oid ilmiy maqolalar, kitoblar, tadqiqotlar va boshqa manbalarni tahlil qilib, ular orasidagi munosabatlar va farqlarni aniqlash. Kelajak istiqbollari: Raqamlashtirish jarayonining davomi, inklyuziv ta'limga yangi trendlar va istiqbollarni ko'rib chiqish (6).

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonda inklyuziv ta'limga rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, qarorlar, dasturlar, hisobotlar, statistik ma'lumotlar va boshqa hujjatlarni tahlil qilish orqali inklyuziv ta'limga raqamlashtirishning huquqiy asoslari, amalga oshirilayotgan tadbirlar, erishilgan natijalar va mavjud muammolar atroficha o'r ganib chiqildi. Bu sohaga oid malumotlarni o'r ganishda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlillash, monografik tadqiqotlar, ma'lumotlarni guruqlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Inklyuziv ta'limga, barcha o'quvchilarni, ularning imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat'iy nazar, ta'limga jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi. Bu ta'limga yondashuvi, o'z ichiga nogironligi bo'lgan talabalardan tortib, tilni o'r ganayotgan talabalar va boshqa maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarni qamrab oladi. Inklyuziv ta'limga, odamlarning teng huquqli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan va bu jarayonni amalga oshirish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar muhim rol o'yndaydi.

Quyida inklyuziv ta'limga strukturaviy sxemasi aks ettirilgan.



1-rasm. Quyida inklyuziv ta'limga strukturaviy sxemasi.

(Mualliflar ishlanmasi)

Inklyuziv ta'limga quyidagi asosiy tamoyillarga tayanilgan holda tashkil etiladi:

Inson qadri uning imkoniyatlari yoki yutuqlari bilan emas, balki shunchaki inson ekanligi bilan belgilanadi.

- Har bir shaxs his qilish va o‘ylash qobiliyatiga ega bo‘lishi tan olinadi.
- Har bir inson muloqot qilish va tinglanish huquqiga ega.
- Har bir inson boshqa bir kishiga zarur va kerakli hisoblanadi.
- Ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi va hamkorlik asosida amalga oshirilishi lozim.
- Har bir o‘quvchi do‘stona muhit va tengdoshlarining qo‘llab-quvvatloviga muhtoj.
- Turli-tumanlik har bir o‘quvchining hayoti va rivojlanishining barcha jabhalarini to‘laqonli qamrab olishi kerak.
- Inklyuziv ta’limning asosiy vazifalari:
- rivojlanish darajalari turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun hech qanday kamsitishsiz, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘linadigan, moslashtirilgan yagona ijtimoiy muhitni shakllantirish.
- jamoatchilik va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarga nisbatan bag‘rikenglik va tushuncha bilan yondashish madaniyatini rivojlantirish.
- sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatini ochib berish va rivojlantirish.
- barcha bolalar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiyo‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini egallash imkoniyatini yaratish.
- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, jumladan ularning emotSIONAL-irodaviy sohasini, bilish faoliyatini, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.
- maxsus ehtiyojga ega bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat va axborot yordami ko‘rsatish, ota-onalarning pedagogik bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ta’lim va tarbiya jarayonida ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Dunyoning turli mintaqalarida inklyuziv ta’limga jalb qilinmagan bolalar ulushi turlicha ko‘rsatgichga ega bo‘lib, quyidagi keltirilgan rasmda dunyoning turli mintaqalarida inklyuziv ta’limga jalb qilinmagan bolalar ulushi ko‘rsatilgan (2-rasm). Diagramma har bir mintaqada maktabga bormayotgan yoki inklyuziv ta’limdan chetda qolgan bolalar foizini ko‘rsatadi. Bu inklyuziv ta’limning mintaqalar kesimida qanchalik rivojlangan yoki muammoli ekanini aks ettiradi.



2-rasm. Dunyoning turli mintaqalarida inklyuziv ta'limga jalb qilinmagan bolalar ulushi. (Mualliflar ishlanmasi)

Bu yerda, kamroq to'ldirilgan chiziqlar (●) – inklyuziv ta'limga yuqori qamrov. Ko'proq to'ldirilgan chiziqlar (■) – inklyuziv ta'limgan chetda qolgan bolalar ko'proq.

Rasmda ko'rsatilgan Markaziy Osiyo uchun 0.4% ko'rsatkichi — O'zbekistonni ham qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki: O'zbekistonda maktabga qatnamayotgan yoki inklyuziv ta'limgan chetda qolgan bolalar soni juda past. Ya'ni, har 1000 boladan atigi 4 nafari inklyuziv ta'limgan chetda qolmoqda. Bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashganini bildiradi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan inklyuziv ta'limgni yanada rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik, metodikalar, maxsus maktablar, resurs markazlari yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston mintaqadagi ilg'or davlatlardan biri bo'lib, inklyuziv ta'limgni amaliyotga joriy etish va imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim bilan to'liq qamrab olish bo'yicha ijobjiy natijalarga erishmoqda. Bu natijalarni yanada yaxshilash uchun respublikamizda inklyuziv ta'limgni raqamlashtirishga ko'proq e'tibor qaratilsa ta'lim olishda qiyinchiliklarga uchrab kelayotgan insonlar ayniqsa nogironligi bo'lganlarga yana ko'proq imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'limgni raqamlashtirish ta'lim tizimida bir nechta ijobjiy imkoniyatlarni taqdim etadi:

Masofaviy ta'limgning kengayishi: COVID-19 pandemiyasi davomida masofaviy ta'lim tizimi joriy etilishi orqali inklyuziv ta'limgni amalga oshirish imkoniyatlari bir muncha kengaydi. Bu orqali odamlar, ayniqsa, nogironligi bo'lganlar, ta'limga qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tezkor ma'lumot olish: Raqamli platformalar yordamida o'quvchilar ta'lim materiallariga, video darslarga va qo'shimcha manbalarga oson kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularni ta'lim jarayonida qo'shimcha yordam olishlariga imkon yaratadi.

Interaktiv dasturlar: O'zbekiston ta'lim muassasalari raqamli interaktiv dasturlarni joriy etish orqali o'quvchilarning yangi bilimni qabul qilishlarini osonlashtirishga harakat qilmoqda. Bu orqali o'quvchilar o'z o'quv faoliyatlarini ko'rsatishlari va bilimga qiziqishlarini oshirishlari mumkin.

Yordamchi texnologiyalar: O'qituvchilar uchun raqamli yordamchi vositalar, masalan, nutqni matnga o'giruvchi dasturlar, audiokurslar va boshqa texnologiyalar, talabalarga ta'lif jarayonida qo'shimcha yordam berish imkoniyatlarini yaratadi.

Shu bilan birga bu afzalliklar bilan bir qatorda O'zbekistonda inklyuziv ta'lifni raqamlashtirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud:

- Infratuzilma ya'ni texnologik imkoniyatlar: Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilma, qarorlar va resurslar yetishmaydi. Ayrim hududlarda internetga kirish va raqamli qurilmalar yetishmovchiligi muammosi saqlanib qolmoqda.
- O'qituvchilarning tayyorgarligi: O'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni ishlashiga tayyorgarlik darajasi turlicha. Ko'plab o'qituvchilar uchun raqamli vositalardan foydalanish murakkab bo'lishi mumkin, bu esa ta'lif sifatini pasaytiradi.

O'quvchilarning yetarli bilimga ega bo'lmasligi: Raqamli ta'limga qiziqish va faol ishtirok etish uchun o'quvchilarda motivatsiya yetishmaydi, bu esa inklyuziv ta'lifning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda inklyuziv ta'lifni raqamlashtirish oraqlari bir qancha afzalliklarga erishish mumkin. Barcha o'quvchilar teng imkoniyatga ega bo'lishadi. Ya'ni raqamli platformalar (masalan, videodarslar, interaktiv materiallar) oraqlari har qanday imkoniyati cheklangan bola ham masofadan turib yoki moslashtirilgan shaklda ta'lif olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'zi ojiz, eshitishda nuqsoni bo'lgan yoki jismoniy cheklovlar bo'lgan bolalar uchun maxsus ilovalar, audio kitoblar, surdo tarjima kabi raqamli yechimlar ishlab chiqilishi mumkin. Inklyuziv ta'lifni raqamlashtirish orqali hududiy tengsizliklarni kamaytirishga erishish mumkin, ya'ni qishloq yoki chekka hududlardagi bolalar ham onlayn tizimlar orqali sifatlari ta'lifdan foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Onlayn portal va mobil ilovalar orqali ota-onalar o'z farzandlari holatidan boxabar bo'lishadi va psixologik-pedagogik maslahatlar olish imkoniga ega bo'ladilar. Raqamli tizimlar orqali har bir o'quvchining ishtiroki, yutuqlari, qamrovi va ehtiyojlari real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Bu esa davlat va hududiy darajada tezkor qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lifni raqamlashtirish O'zbekistonga iqtisodiy jihatdan ham bir qator muhim foyda va ijobiyligi ta'sirlar olib keladi. Raqamli resurslar orqali bosma darsliklar, alohida joylashuvlar yoki maxsus maktablar uchun doimiy xarajatlar kamayadi. Raqamli resurslar orqali bosma darsliklar, alohida joylashuvlar yoki maxsus maktablar uchun doimiy xarajatlar kamayadi.

Masofaviy ta'lif imkoniyati orqali transport, infratuzilma xarajatlari qisqaradi. Ta'lif olgan nogironlar mustaqil faoliyat yuritadi, band bo'ladi — bu esa nafaqa to'lovlari yukini kamaytiradi va budgetga tushumlarni oshiradi. Texnologiyalardan foydalana oladigan har xil ehtiyojdagi bolalar IT, dizayn, masofaviy xizmatlar kabi yo'naliishlarga ixtisoslashadi — bu esa eksportbop xizmatlar hajmini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyuldaggi PQ-4792-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligining 2021-yildagi 2021-2025 yilgacha inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir Dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi PQ-5029-sonli farmoni.
4. Akramova, F. A. (2021). Inklyuziv ta’limning O‘zbekistonda joriy etilishidagi muammolar va yechimlari. Innovatsion pedagogika.
5. Abdullayeva, N. (2022). Raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta’limdagi roli. Zamonaviy ta’lim.
6. Xodjayev, B. X., & Eshpulatov, Sh. U. (2020). Inklyuziv ta’lim: Nazariy asoslar va amaliy tajriba. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
7. Tursunova, G. (2019). Maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitishda raqamli resurslardan foydalanish metodikasi. Dissertatsiya, Toshkent.
8. Nilholm, C. (2006). Special education, inclusion and democracy. European Journal of Special Needs Education.
9. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education?. European Journal of Special Needs Education.
10. UNESCO. (2009). Policy Guidelines on Inclusion in Education. Paris: UNESCO.

Internet resurslari:

11. Norma.uz-Axborot huquqiy portali:
[https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bolalar_uchun_inklyuziv_talim_qanday_tashkil_etiladi]
12. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi:
[<https://lex.uz/uz/docs/-5679836?ONDATE=11.12.2024%2000>]